



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI  
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR  
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sultonova Lobarxon Abdunosir qizi

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB DIREKTORLARINING  
BOSHQARUV FAOLIYATINI BAHOLASHNING TA'LIM  
SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya:** maqolada umumiy o'rta ta'lism maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning ta'lism sifatini oshirishdagi ahamiyati hamda mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab direktori, boshqaruv faoliyat, baholash, mezon, baholash mezonlari

Insoniyatni o'z rivojlanishining postindustrial davriga o'tishi, mamlakatimizning global makonga kirishga intilishi va bozor iqtisodiyotiga ega ijtimoiy-demokratik jamiyat qurishga e'tibor butun ta'lism tizimini sifatli yangilash zarurligini oldindan belgilab beradi. Ushbu muammoni hal etishning zaruriy sharti ta'lismi modernizatsiya qilishning yangi boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'lib, bu ta'lism muassasalari rahbarlari, jumladan, maktab direktorlarining rolini oshiradi. Yurtimizning taraqqiyot bosqichida maktab kabi murakkab dinamik tizimni boshqarish uning direktorini nafaqat ichki va tashqi muhitdagi barcha o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishga va o'z vaqtida javob berishga, balki ularning rivojlanishini prognoz qilish jarayonlariga ham diqqatini qaratishga undaydi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizning zamonaviy tajribasidan suboptimal boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, boshqaruv xodimlari malakasining ko'p



jihatdan yetarli emasligi, ularning kasbiy fazilatlari va boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmining (tartiblari, ko'rsatkichlari, mezonlari) mavjud emasligi, shuning uchun ularning ishiga qo'yiladigan talablar tizimining ishlab chiqilmaganligi; boshqaruv faoliyati va muassasa faoliyati natijalari va ularni o'lchash usullari o'rtasida dalillarga asoslangan integrativ aloqalarning yo'qligini ko'rishimiz mumkin, bu borada esa rahbar kadrlar, jumladan, ta'lim muassasalari rahbarlarini tanlash va faoliyatini baholash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmonida ham umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo'limgan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o'rinosarlari o'rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi ta'kidlangan. Shu munosabat bilan ham umumiyoq o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish-ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli ishlashi ko'p jihatdan uning rahbarining kasbiy mahoratiga, shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlariga bog'liq. Zamonaviy ta'lim muassasasining rahbari butun o'quv jarayonidagi markaziy shaxsdir. U turli xil boshqaruv muammolarini hal qila olishi, o'matilgan an'analari va turmush tarziga ega bo'lgan ta'lim muassasasini nafaqat boshqarish, balki uni nazariya va amaliyot bo'yicha maxsus bilimlarni talab qiladigan sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qodir bo'lishi kerak.

Rus olimlari Davidenko T.M., Konarjevskiy Yu.A., Krichevskiy V.Yu., Podchalimova G.N., Tonkonoga E.P., Tretyakov P.I., Shamova T.I.lar o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasasi rahbarligi - nafaqat lavozim, balki maxsus boshqaruv ta'limini talab qiluvchi kasb ekanligini ko'rsatib berdilar.

Rahbarning shaxsiyati, uning kasbiy va axloqiy fazilatlari pedagoglar jamoasini birlashtirish, zamonaviy sharoitlarda murakkablashgan mamlakat fuqarolarining yangi avlodlarini o'qitish va tarbiyalash vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Aksincha, direktorning rahbarlik faoliyatining tabiatni va uslubidagi salbiy jihatlar ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligining pasayishiga, professor-o'qituvchilarning bezovtalanishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan samarali o'quv jarayonini tashkil etish va rivojlantirishda lavozimga tanlash va ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini baholash muammosi muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagilarning barchasi ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini yanada chuqurroq va har tomonlama baholashni taqozo etadi.

Shu o'rinda baholash so'zining mazmun-mohiyatiga to'xtalsak. Baholash - bu biror narsaning darjasini yoki sifatini belgilashdir. Shuningdek, baholash - bu shaxs tomonidan amalga oshiriladigan baholash jarayoni, faoliyati (yoki harakati). Bizning taxminiy va umuman har qanday faoliyatimiz baholashga bog'liq. Baholashning anqligi va to'liqligi maqsad sari harakatning ratsionalligini belgilaydi.



Ta’lim tizimida baholash muhim rol o‘ynaydi. Baholash funksiyalari faqat tayyorgarlik darajasini tasdiqlash bilan cheklanmaydi. Baholash shaxsni o‘rganish, ijobjiy motivatsiya va shaxsga ta’sirini rag‘batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan obyektiv baholash ta’siri ostida maktab direktorlarida o‘z-o‘zini baholash, o‘z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun baholashning ahamiyati, uning funksiyalarining xilma-xilligi maktab direktorlari faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularning aydentifikatsiyasini ta’minlaydigan mezonlarni izlashni talab qiladi.

Mezon – grekcha “kriterion” so‘zidan olingen - muhim, farqlovchi xususiyat degan ma’nolarni bildirib, uning asosida biror narsani baholash, ta’riflash yoki tasniflash amalga oshiriladi.

Ish faoliyatini baholash tizimi uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu yagona tashkilotga ham, butun jamiyatga ham tegishlidir. Bu ko‘p jihatdan uni amalga oshirayotgan odamning xatti-harakatiga bog‘liq. Bu ham samarali, ham samarasiz bo‘lishi mumkin, bu ishning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Masalan savdo faoliyatini baholash ijobjiy bo‘lsa, natija savdo hajmining oshishi, boshqaruvda esa butun jamoaning yaxshi muvofiqlashtirilgan va tashkiliy ishi deb hisoblanishi mumkin.

Baholash predmetiga ko‘ra miqdoriy va sifat mezonlari mavjud. Miqdoriy mezon nima? Uning ahamiyati juda aniq: erishilgan natijalarga ko‘ra, belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi va hajmini baholash mumkin. Sifat mezonlari biroz murakkabroq. Bularga, birinchi navbatda, bajarilgan ishning sifati kiradi, bu ko‘pincha miqdoridan muhimroqdir. Bundan tashqari, sifat mezonlari yordamida xodimning individual xususiyatlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Belgilangan natijalarga muvaffaqiyatlari erishish uchun ochiqlik, tashabbuskorlik, hissiy barqarorlik katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida butun dunyoda maktab direktorlarining kasbiy faoliyatini baholashning turli usullari, shuningdek, ularni lavozimga tayinlashda tanlash tartiblari keng qo‘llaniladi, shuningdek, ular jadal rivojlanmoqda. Barkamol, mantiqiy va nazariy jihatdan asoslangan baholash tizimining mavjudligi ta’limda kadrlar rivojlanishini boshqarish jarayonini malakali qurish, yashirin zaxiralarni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Biroq mamlakatimizda ham, xorijda ham ta’lim muassasalari rahbarlarini tanlash va boshqaruv faoliyatini baholash masalasini hal etishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Professor-o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, masalan, Rossiyaning aksariyat hududlari boshqaruv xodimlariga birinchi va eng yuqori malaka toifalarini berish to‘g‘risida qaror qabul qilishda eng katta qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Bu, asosan, Rossiyada ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, hozirgi kunga qadar ta’lim muassasalari rahbarlariga ilmiy asoslangan talablar qo‘yilmaganligi bilan bog‘liq; ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy fazilatlari, boshqaruv malakasi va mehnat samaradorligini baholashning kompleks ko‘rsatkichlari, mezonlari va tartiblari tizimi ishlab chiqilmagan. Natijada ta’lim muassasalari rahbarlarining faoliyatini baholash turli hududlarda ta’lim muassasalari



rahbarlarining boshqaruv faoliyatining faqat ayrim jihatlarini qamrab oluvchi usullardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Bu turli hududlarda bir xil rahbarlarning bahosi har xil bo‘lishi mumkinligiga olib keladi.[3]

Mamlakatimizda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashning joriy amaliyoti Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq amalga oshirilmoqda. Uning 6-reyting natijalari asosida mas’ul xodimlar faoliyatini baholash bobining 24-bandida “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari, ularning o‘rinbosarlari va pedagog xodimlari faoliyatini baholash umumiy o‘rta ta’lim muassasalari reytingini aniqlash mezonlari asosida ishlab chiqilgan reyting natijalariga muvofiq amalga oshiriladi” deb belgilab qo‘yilgan.[2]

Shuni ham ta’kidlash joizki, xalq ta’limi boshqaruvi organlari amaliyotida ta’lim muassasasi rahbari lavozimiga tanlash va ta’lim muassasalarining amaldagi direktorlarining kasbiy faoliyatini baholash jarayonlari haligacha faqat evristik usulda nomzodlar va hozirgi direktorlarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini batafsil tahlil qilinmasdan amalga oshirilmoqda. Ta’lim rivojlanishining zamonaviy sharoitida, asosan, hayotiy tajriba va sezgiga asoslangan bunday subyektiv baho tobora kuchayib bormoqda. 8 yildan 26 yilgacha rahbarlik ish stajiga ega bo‘lgan xalq ta’limi tashkilotlarining rahbar xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan ekspert so‘rovi shuni ko‘rsatdiki, keyingi yillarda ta’lim muassasalari direktorlarini tanlashda xatoliklar ko‘paygan va bu xatolarning asosiy sabablarini mutaxassislar raqobatning yo‘qligi hamda ta’lim muassasasi rahbari lavozimiga tanlashning dalillarga asoslangan mezonlari va usullari ishlab chiqilmaganligida deb hisoblashgan.

Shunday qilib, menejment nazariyasida lavozimga da’vogarlarni baholashning izchil va keng qamrovli nazariyasi mavjud emasligi va hozirgi rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi ta’lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishda muammo tug‘dirmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish-maktab boshqaruvida hamda ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalilanilgan adabiyyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
3. Литвиненко, Элеонора Владимировна “Квалиметрические модели и технология оценки управленческой деятельности руководителей образовательных учреждений” тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01.



4. Давыденко Т.М. Интегральные критерии оценки качества внутришкольного управления / Управление качеством образования. Сб. мат-лов научной сессии ФПК и ППРО М.: Бакалавр, 2001 - С. 52-55.
5. Давыденко Т.М. Рефлексивное управление школой: теория и практика. Москва - Белгород: БГПУ, 1995 - 251 с.
6. Давыденко Т.М. Теоретические основы рефлексивного управления школой. Автореферат дис. докт. пед. наук М., 1996 - 35 с.
7. Конаржевский Ю.А. Внутришкольный менеджмент. М.: Новая школа, 1992- 135 с.
8. Конаржевский Ю.А. Педагогический анализ учебно-воспитательного процесса и управления школой М.: Педагогика, 1986 - 144 с.
9. Кричевский В.Ю. Совершенствование управленческих знаний как фактор повышения эффективности работы директора общеобразовательной школы. Дис. канд. пед. наук. Л., 1980 - 228 с.
10. Подчалимова Г.Н. Теория и практика проектирования содержания дополнительного профессионального образования руководителей школ. Автореферат дисс. докт. пед. наук-М., 2001 -41 с.